

Sharq uygʻonish davri dorishunosligini tadqiq etishda Abu Bakr ar-Roziy, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinoning ilmiy merosidan foydalanish

Jamoliddin Yuldoshovch Raxmatov
rakhmatovjaloliddin@gmail.com
Muxlisa Norbekovna Boboqulova
boboqulovamuxlisa90@gmail.com

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Biokimyo instituti

Annotatsiya: Sharq uygʻonish davri tibbiyot va dorishunoslik fanlarining rivojlanishida Abu Bakr ar-Roziy, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino ilmiy merosi markaziy ahamiyatga ega. Ushbu maqolada Beruniyning Roziy asarlarini tizimli va tanqidiy oʻrganishi, “Saydana” va boshqa manbalar orqali dorishunoslik amaliyotiga tatbiq qilinishi tahlil qilinadi. Shuningdek, Ibn Sinoning “Qonun fi-t-tibb” asarida Roziy tavsiyalarining tizimli tarzda qoʻllanilishi va murakkab dorilar tarixiy konteksti yoritilgan. Maqola Sharq uygʻonish davri olimlarining ilmiy merosi zamonaviy farmakognoziya va dorishunoslik tadqiqotlarida metodologik asos boʻlib xizmat qilishini koʻrsatadi.

Kalit soʻzlar: sharq uygʻonish davri, dorishunoslik, Abu Bakr ar-Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, ilmiy meros, farmakognoziya

Utilization of the scientific heritage of Abu Bakr al-Razi, Abu Rayhon Beruni, and Abu Ali ibn Sina in the study of pharmacy during the eastern renaissance

Jamoliddin Yuldoshovch Raxmatov
rakhmatovjaloliddin@gmail.com
Muxlisa Norbekovna Boboqulova
boboqulovamuxlisa90@gmail.com

Institute of Biochemistry, Samarkand State University named after Sharof Rashidov

Abstract: The Eastern Renaissance marked a significant period in the development of medicine and pharmacy, with the contributions of Abu Bakr al-Razi, Abu Rayhon Beruni, and Abu Ali Ibn Sina being particularly influential. This study analyzes Beruni’s systematic and critical examination of al-Razi’s works, including the application of his findings in “Kitab as-Saydana” to pharmaceutical practices. Furthermore, it highlights the integration of al-Razi’s recommendations in Ibn Sina’s

“Al-Qanun fi-t-Tibb” and the historical context of compound drugs. The article demonstrates that the scientific legacy of these scholars provides a methodological foundation for contemporary research in pharmacognosy and pharmacy education.

Keywords: Eastern Renaissance, pharmacy, Abu Bakr al-Razi, Abu Rayhon Beruni, Abu Ali Ibn Sina, scientific heritage, pharmacognosy


X-XI asrlar Sharq uygʻonishi davri boʻlib, ilm-fan va madaniyatning rivojlanishida muhim rol oʻynagan [1;2]. Bagʻdod va Markaziy Osiyo ilmiy markazlarida tibbiyot, farmakognoziya, kimyo va falsafa sohalarida sezilarli yutuqlar qozonilgan. Abu Bakr ar-Roziy (865 - 925) va Abu Ali ibn Sino (980-1037) bu markazlarda faoliyat yuritgan eng nufuzli olimlar boʻlib, ular tibbiyot va murakkab dorilarni tadqiq etishda beqiyos hissa qoʻshganlar[3; 4]. Roziy Gʻarbda “Razes” nomi bilan tanilgan va “Ikkinchi Galen” sifatida eʼtirof etilgan[5]. Ibn Sino esa Roziyning ilmiy merosini oʻrgangan va oʻzining “Qonun fi-t-tibb” asarida tizimli tarzda qoʻllagan[6]. Sharq uygʻonish davri esa taʼlim muassasalarida tahsil olayotgan farmasevtika yoʻnalishi talabalari uchun ayni paytda tibbiyot tarixi, klinik kuzatuv va murakkab dorilarni nazariy jihatdan oʻrganish imkonini beradi. Bu davr ilmiy merosini oʻrganish dars jarayonida talabalarni klinik tafakkur va ilmiy tajribaga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Abu Bakr ar-Roziy 251 hijriy yil 1 shaʼbon (865 yil 28 avgust) kuni Eronning Ray shahrida tugʻilgan[7]. Yoshligida adabiyot, musiqa va sanʼatga qiziqib, soʻng falsafa, matematika, geografiya, astronomiya va kimyo fanlarini oʻrgangan[8]. Roziy Ray va Bagʻdod shifoxonalarida klinik faoliyat olib borgan[9]. Uning tibbiyot sohasidagi merosi 36 tibbiy asar va 25 jildlik ensiklopedik “Al-Hoviy” (Kitab al Hawi fi al tibb) asarida jamlangan[10], [7]. Roziy terapiya, diagnostika, jarrohlik, sanitariya-gigiyena, farmakologiya, farmakognoziya, anatomiya va psixologiya boʻyicha yangi yondashuvlar yaratgan. Muallifning muhim risolalariga quyidagilar kiradi: “Manfaʼat al-aghdhiya wa dafʼ madarriha” - murakkab dorilar va oziq-ovqatlarning foydasi, “Kitob al-judariy wa-l-hasba” - chechak va qizamiq kasalliklari, “Daʼf mazarr al-aghdhiya” - ovqatlanish gigiyenasi, “Kitob al-abdal wa-l-adwiya al-badila” - dorilarning oʻrnini bosuvchi vositalar, va “Fi-l-fasd” - qon olish usullariga bagʻishlangan [7]. U koʻz kasalliklari uchun surma elakisi va eritmalaridan foydalanib, yangi dorilar yaratgan[8]. Kimyo va alkimyo boʻyicha laboratoriyalar tashkil qilgan, yangi dorivor moddalardan, masalan, marsin, gunafsha va taboshir kulchalaridan foydalangan[9]. Roziy 5 shaʼbon 313 hijriy yil (26 oktyabr 925)da vafot etgan va ilmiy merosi tibbiyot, kimyo va falsafa sohalarida qadrlanadi[10].

XX asrning isteʼdodli Eron rassomi Xusayn Behzad (1894 -1968), zamonaviy fors miniatiyasi sanʼati ijodkori sifatida tarixiy va ilmiy mavzularni klassik uslubda

tasvirlagan bo‘lib, uning “Zakariyo Roziy” nomli miniaturasida Roziy tibbiy amaliyot jarayonida aks ettirilgan (1-rasm).

Britaniyalik sharqshunos va yozuvchi Edward Granvil Braun Ar-Roziy haqida ta’rif berarkan, uni: *“Barcha musulmon tabiblari orasida o‘ziga xos va ulug‘ tabib bo‘lib, eng sermahsul asarlar muallifi”*, deb e’tirof etadi¹ [1].



1-rasm. Xusayn Behzad. Zakariyo Roziy. Miniatura. 1954 yil.



2-rasm. Javlon Umarbekov. “Ongli inson”. Mahobatli rangtasvir. Lavha.1980 yil.

Sharq uyg‘onish davri ilm-fan taraqqiyotida Abu Bakr ar-Roziy va Abu Rayhon Beruniy nomlari alohida o‘rin tutadi [12]. Ayniqsa, Beruniyning Roziy ilmiy merosini tanqidiy, tizimli va manbashunoslik asosida o‘rganishi o‘rta asr ilmiy tafakkurining yuksak namunasi sifatida baholanadi [12]. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Abu Rayhon Beruniy (973-1048) 22 yoshida Ray va Gurgon ilmiy muhitida bo‘lib, Abu Bakr ar-Roziyning hayoti, ilmiy faoliyati va asarlarini chuqur o‘rganadi [12].

Shu izlanishlar natijasida, 1036 yilda, Beruniy “Muhammad Zakariyo Roziy kitoblarining fehristi” nomli risolani yaratadi [12]. Ushbu fehrist Roziy asarlarini mavzular bo‘yicha ilmiy mezonlar asosida birinchi marta tizimli tarzda tasniflagan bo‘lib, u tibbiyot, tabiiy fanlar, kimyo, falsafa, matematika va astronomiya, mantiq, sharh va qisqartmalar, ilohiyot, metafizika, dahriy fanlar va boshqa yo‘nalishdagi asarlarni qamrab olgan [12]. Masalan, fehristning tibbiyot bo‘limida 56 ta asar kiritilgan [12]. Bu hol Roziyning qomusiy olim sifatidagi mavqeini va uning ilmiy merosining tizimlashtirilganligini tasdiqlaydi [12].

Beruniy ushbu fehristdan foydalangan holda Roziyning ilmiy qarashlarini dorishunoslik amaliyotiga tatbiq qilgan va “Saydana” asarida ushbu ma’lumotlarni ilmiy asosda bayon etgan [6;12]. Shu tariqa, Beruniy Roziy ilmiy merosini tizimli va tanqidiy o‘rganib, uni keyingi avlod olimlari, jumladan Abu Ali ibn Sino tomonidan ham qo‘llaniladigan tarixiy-metodologik manbaga aylantiradi [4;6;12].

¹E. G. Brown, A Short History of Oriental Medicine. London: Oxford University Press, 1920,45-bet.

Beruniyning “Kitob as-saydana fi-t-tib” asarida Roziy qarashlari dorishunoslikning muhim manbasi sifatida qo‘llanilib, dorivor moddalarni tanlash, ularning muqobilini aniqlash, farmakologik xususiyatlari va sifat mezonlarini belgilashda keng foydalanilgan. Dorivor o‘simliklar, mineral vositalar va zaharlarga qarshi moddalar haqidagi ma’lumotlar Roziy tajribalariga tayangan holda bayon etilgan [6; 8]. Natijada, Roziyning tibbiyot va farmakognoziyaga oid bilimlari Beruniy tomonidan ilmiy jihatdan umumlashtirilib, keyingi avlod olimlariga yetkazilgan bo‘lib, ular bugungi dorishunoslik tadqiqotlari uchun ham muhim tarixiy-metodologik manba hisoblanadi [3; 11]. Abu Ali ibn Sino o‘zining mashhur “Qonun fi-t-tibb” asarini yaratishda Abu Bakr ar-Roziyning klinik kuzatuvlari hamda amaliy tavsiyalaridan keng va samarali foydalangan[4]. Ushbu asar tibbiyot ilmining nazariy va amaliy asoslarini tizimli tarzda bayon etgan bo‘lib, besh kitobdan iboratdir. Birinchi kitobda tibbiyotning umumiy nazariy masalalari yoritilgan. Ikkinchi kitob sodda dorivor moddalar va ularning xususiyatlariga bag‘ishlangan. Uchinchi kitobda ayrim a’zolariga xos kasalliklar va ularni davolash usullari bayon etilgan. To‘rtinchi kitobda esa butun badan a’zolariga umumiy bo‘lgan kasalliklar va gigiyena masalalari ko‘rib chiqilgan. Beshinchi kitob murakkab dorilar, ularning tarkibi va qo‘llanilishiga oid ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi[5].

Roziyning arab tilida yozilgan “Qesas va Hekayat al-Marazi” (“Kasalliklar tarixi va klinik kuzatishlar”) asarida sodda dorivor vositalar keltirilganligi ma’lum bo‘lib, aynan shu vositalar Ibn Sinoning “Al-Qonun” asarida ham shu kasalliklarni davolashda ishlatilgani aniqlangan[6]. Ushbu asarda bemorlarda kasallik kechishi va dorivor moddalar yordamida davolash usullariga oid muhim klinik ma’lumotlar jamlangan bo‘lib, Ibn Sino “Al-Qonun”ning sodda dorilar bo‘limida aynan shu klinik amaliyotlarga asoslangan dorilarni batafsil bayon etgan.

Murakkab dorilar (masalan, taryoq) Ibn Sinoning “Al-Qonun” asari V kitobida klinik kuzatuv va tajriba asosida bayon qilingan [12]. Ushbu dorilar orasida katta taryoq ma’juni, yoqutdan tayyorlangan ma’jun va semirtiruvchi ma’jun kabi turlar mavjud. Taryoq (yunoncha theriaca so‘zidan) zaharlarga qarshi ishlatiladigan murakkab tarkibli dorilarni anglatadi. X-XI asrlarda o‘rta asr tibbiy manbalarida taryoqning yigirmadan ortiq turi qayd etilgan bo‘lib, ular orasida turkiy taryoq, Ibn Sinoning katta va kichik taryoqlari, bur as-soat taryoqlari va Muhammad ibn Zakariyo (ar-Roziy) taryoqlari mavjud [12]. X-XI asrlarda yashagan Abu Abdulloh al-Xorazmiy taryoq so‘zining kelib chiqishi haqida yozadi: *“Bu so‘z yunoncha theriaca yoki ilon va shunga o‘xshash chaquvchi hayvonlarni bildiruvchi tiriyaun so‘zidan olingan”*² [2].

Murakkab dorilar (masalan, mushk dorisi) Ibn Sinoning “Tib qonunlari” V kitobida klinik kuzatuv va tajriba asosida bayon qilingan [3]. Ushbu dorilar tarkibi odatda bir nechta dorivor o‘simliklar, minerallar va boshqa tabiiy moddalarni o‘z

² Ibn Abi Usaybia, Uyun al-anba fitabaqat al-atibba (History of Physicians), tahrir qilingan nashr, sah. 546.

ichiga oladi. Masalan, mushk dorisi tarkibida yovvoyi zanjabil, dorunaklar, marvarid, qahrabo, marjon, kuydirilgan xom ipak, qizil va oq bahman, hind sodaji, sunbul, kopila, qalampirmunchoq, qunduz qiri va ushnalar, zanjabil va uzun murch, mushk kabi moddalar mavjud bo'lgan [3]. Dorilar maydalanib, aralashtirilgan holda tayyorlangan va klinik kuzatuv asosida bemorlarga qo'llangan.

Ibn Sino tomonidan tavsiflangan mushk dorisi o'z davrida klinik kuzatuv va tajribaga asoslangan murakkab dori bo'lib, asosan yurak va asab tizimi kasalliklarida hamda umumiy holsizlik va sovuq mizoj bilan bog'liq holatlarda qo'llangan. Shu bois Ibn Sinoning murakkab dorilar haqidagi nazariy yondashuvi va klinik tajribalari farmakognoziya va dorishunoslik tadqiqotlari uchun muhim metodologik manba bo'lib xizmat qiladi [3]. Rangtasvir ustasi musavvir Javlon Umarbekovning "Ongli inson" nomli asari buyuk olim Abu Ali ibn Sinoning xotirasiga bag'ishlangan bo'lib, ajdodlarga hurmat va ehtirom bilan uning ilmiy merosini tasvirlaydi (2-rasm).

Tibbiyot tarixchisi William Osler Abu Ali ibn Sinoning tibbiyot tarixidagi o'rnini yuksak baholab, shunday ta'kidlaydi: *"Avitsenna o'rta asrlar tibbiyotining eng yuksak cho'qqisi bo'lib, uning "Qonun fi-t-tibb" asari bir necha asrlar davomida Yevropa universitetlarida asosiy o'quv qo'llanma sifatida foydalanilgan"*³[11].

Sharq uyg'onish davri olimlari - Abu Bakr ar-Roziy, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinoning ilmiy merosi farmasevtika yo'nalishidagi ta'limda muhim ahamiyatga ega. Ularning asarlari orqali talabalar murakkab dorilar tarixi, tarkibi va qo'llanish tamoyillarini o'rganib, nazariy bilimlarini amaliy va tanqidiy tafakkur ko'nikmalari bilan boyitadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brown, E. G. A Short History of Oriental Medicine. London:. Oxford University Press, 1920, p. 45.
2. Ibn Sino. Qonun, V kitob. Tashkent:. Fan, 1984, 17 bet.
3. Ibn Sino. Tib qonunlari (Al-Qanun fi-t-Tibb), V kitob. Toshkent:. Fan, 1984, 62-63 bet.
4. Paul Savy. Traite de Therapeutique Clinique. Paris:. Masson, 1922.
5. Roziy, Abu Bakr. Kasalliklar tarixi. Ray:. 750-763 betlar.
6. Beruniy, Abu Rayhon. Saydana. Bukhara:. 77, 126, 850, 1017, 1036, 1069.
7. Ar-Roziy, Abu Bakr. Al-Hoviy. Ray, 912-925 betlar.
8. M. Qo'shjonov. Dorishunoslik tarixiga oid tadqiqotlar. T:. Fan, 1978.
9. Campbell, D. Arabian Medicine. London:. Wellcome Trust, 1991.
10. O'rta asr Sharq tabobati. Toshkent:. Fan, 1980.

³ Osler, W. The Evolution of Modern Medicine. New Haven: Yale University Press, 1921. 98-bet.

11. Osler, W. The Evolution of Modern Medicine. New Haven: Yale University Press, 1921. p. 98.
12. U.I. Karimov. Abu Bakr Roziy va uning shogirdi yozib qoldirgan kasalliklar tarixi, Toshkent:. Fan, 1974.